

QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 3-son)



IJTIMOIIY FANLAR  
SOCIAL STUDIES

**ARXIV HUIJATLARIDA O‘ZBEKISTON QISHLOQ AHOLISI ORASIDA  
BRUSELLEZ KASALLIGINING TARQALISHI VA UNING SABABLARINI  
YORITILISHI (1940-1950 YILLAR)**

**Tajimirzaev Elyorbek Akramovich**

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar  
kafedrasi dotsenti, t.f.b.f.d. (PhD), [e.tajimirzayev@gmail.ru](mailto:e.tajimirzayev@gmail.ru),  
tel.: +99893-446-77-34

**Annotatsiya.** Mustaqillikning ilk davrlaridan O‘zbekiston tarixini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va kun taribiga haqqoniy tarixni birlamchi manbalar asosida yaratish, uni holisona talqin etish, bahs va munozaralar asosida tarixiy haqiqatni tiklash qo‘yildi. Ayniqsa, sovet hokimiyati davridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ilmiy asoslarda, arxiv hujjatlari asosida yoritish kun tartibiga chiqdi. Xalqimizning sovet hokimiyati davri ijtimoiy hayotini yoritishda O‘zbekiston ilmiy-texnikaviy va tibbiy hujjatlari Milliy arxivi materiallaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Statistik tahliliy ma‘lumotlar haqqoniy tarixni yuzaga chiqarishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada 1940-1950 yillarda O‘zbekiston qishloq aholisi orasida brusellez kasalligini tarqalishi va unga qarshi ko‘rilgan choralar arxiv hujjatlari asosida statistik ma‘lumot orqali yoritilib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** brusellez, veterinariya, sanitariya, kolxoz, sovxoz, kasallik, bemor, dehqon, emlash, tibbiyot xodimi, chorvachilik xo‘jaligi.

**РАСПРОСТРАНЕНИЕ БРУЦЕЛЛЕЗА СРЕДИ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА И ОСВЕЩЕНИЕ ЕГО ПРИЧИН В АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТАХ  
(1940-1950 ГОДЫ)**

**Аннотация.** С первых лет независимости изучение истории Узбекистана поднялось на уровень государственной политики, и в повестку дня была поставлена задача создания достоверной истории на основе первоисточников, её объективной интерпретации, восстановления исторической правды путем обсуждений и дискуссий. В частности, на повестку дня вышло освещение социально-экономических проблем периода советской власти на научной основе с использованием архивных документов. Использование материалов Национального архива научно-технической и медицинской документации Узбекистана играет важную роль в освещении общественной жизни нашего народа в период советской власти. Статистические аналитические данные служат важным источником для выявления достоверной истории. В статье на основе архивных

документов с помощью статистических данных освещается распространение бруцеллеза среди сельского населения Узбекистана в 1940-1950 годах и меры, принятые для борьбы с ним.

**Ключевые слова:** бруцеллез, ветеринария, санитария, колхоз, совхоз, болезнь, больной, дежанин, вакцинация, медицинский работник, животноводческое хозяйство.

## **THE SPREAD OF BRUCELLOSIS AMONG THE RURAL POPULATION OF UZBEKISTAN AND ITS CAUSES AS ILLUMINATED IN ARCHIVAL DOCUMENTS (1940-1950)**

**Abstract.** From the early days of independence, the study of Uzbekistan's history was elevated to the level of state policy. The agenda included creating an accurate historical account based on primary sources, interpreting it objectively, and restoring historical truth through debates and discussions. Particularly, the task of illuminating the socio-economic issues of the Soviet era on scientific grounds, based on archival documents, came to the forefront. In highlighting the social life of our people during the Soviet period, the use of materials from the National Archive of Scientific, Technical, and Medical Documentation of Uzbekistan is of great importance. Statistical analytical data serve as a crucial source for revealing true history. This article examines the spread of brucellosis among the rural population of Uzbekistan in the 1940s-1950s and the measures taken against it, based on archival documents and statistical data.

**Keywords:** brucellosis, veterinary medicine, sanitation, collective farm, state farm, disease, patient, farmer, vaccination, medical worker, livestock farm.

**KIRISH.** Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi, talim raqobatbardoshligi ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining Mustaqillikka erishishi barcha soxalarda bo'lgani kabi tarixchi olimlar zimmasiga ham masuliyatli vazifalarni yukladi. Mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin sovet hukmronligi yillarida soxtalashtirilgan tarixni turli tazyiqlardan holi ravishdagi haqqoniy tarixni yoritish asosiy talablardan biriga aylandi. Sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonda brusellezga qarshi kurash tarixi qishloq xo'jaligi, veterinariya va sanitariya sohalaridagi keng ko'lamli islohotlar va ilmiy tadqiqotlar doirasida amalga oshirilgan. Brusellezning asosiy tarqalishi mol va qo'ylar orasida kuzatilgan bo'lib, bu kasallik iqtisodiyot va aholi sog'lig'i uchun katta xavf tug'dirgan. Ushbu davrda kasallikka qarshi bir qator muhim choralar ko'rilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** 1943 yilda tashkil etilgan Qashqadaryo oblasti ma'muriy tuzilishiga ko'ra 12 ta rayon va 2 ta shahardan tashkil topgan edi. 1951 yilda kolxozlarning yiriklashtirilishi ro'y berdi, natijada 267 ta kolxoz bu yillarda faoliyat yuritdi. Bundan tashqari, oblastda 4 ta qorako'l sovxozi ham faoliyat yuritgan.

Oblast aholisi asosan chorvachilik bilan shug'ullangan, ayniqsa, kichik shoxli chorvachilik bilan ko'p mashg'ul bo'lgan. 1932-1941 yillar ma'lumotlariga ko'ra, aholini va hayvonlarni tekshirish natijasida Beshkent, Koson, Qarshi, G'uzor, Dehqonobod rayonlarida

brusellez kasalligi keng tarqalganligi aniqlangan. 1932-1933 yillarda oblast sovxozlari aholisi tekshirilganda quyidagi holat aniqlandi: “Qoraqum” sovxozi aholisining 12,4 foizi, “Muborak” sovxozi – 17,3, “G‘uzor” sovxozi – 34,5 foizi, “Nishon” sovxozi – 3,4 foizi brusellyoz kasalligiga chalinganligi aniqlandi.

1948 yilda, ya’ni 15 yil o‘tganidan keyin aholining mazkur kasallikka chalinishi tekshirilganda boshqa bir holat ko‘zga tashlandi, jumladan “Qoraqum” sovxozi aholisining 22 foizi, “Muborak” sovxozi – 19, “G‘uzor” sovxozi – 59,2 foizi, “Nishon” sovxozi – 50,6 foizi brusellyoz kasalligiga ushbu kasallikka chalingani aniqlandi [1:13].

Kolxozlar aholisi orasida ham ushbu kasallikka chalinish yuqori darajada bo‘lganligi tekshirishlar natijasida aniqlangan. Koson va Beshkent rayonlari kolxozlarida 1932-1934 yillarda chorvadorlar o‘rtasida kasallanish 18 foizni, uyida chorvalari bo‘lgan dehqonlarda 12 foizni tashkil etgan [1:14].

1941 yilgacha brusellezga qarshi tadbirlar amalga oshirilishi yaxshi darajada edi. 1941-1948 yillarda brusellezga qarshi obrabotka qilish faqat nasl qoldiruvchi chorva mollarida olib borildi. Natijada chorva mollari ichida mazkur kasallikka chalinish soni oshib bordi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1943 yildan 1949 yilgacha 167 foizga o‘sdı [1:14]. 1949-1950 yillarda bu kasallikka chalinish biroz pasaydi, bunga sabab bu kasallikka chalingan bemorlarni shifoxonalarda davolash yaxshilana boshladi.

1948 yilda viloyat rahbariyati va O‘zSSR qishloq xo‘jaligi vazirligi darajasida chorva mollarini brusellezga qarshi obrabotka qilish bo‘yicha tadbirlar belgilandi, lekin ular bajarilmay qolib ketdi.

Hayvonlar brusellez kasaliga vaqtida tekshirilmagan, masalan, Qashqadaryo oblastida 1950-1951 yilda yirik shoxli qoramollarning 71,9 foiz, mayda shoxli chorva 58,8 foizga tekshirilgan [1:15].

1951 yilda Qashqadaryo oblast sog‘liqni saqlash bo‘limi aholi orasida tadbirlarni kuchaytirdi. Brusellez ko‘p uchraydigan rayonlar shifoxonalari 62 ta o‘rin ajratilgan, jumladan, Qarshida – 25 o‘rin, G‘uzor, Qamashi, Ko‘kbuloq rayonlarida 5 tadan va Koson rayonida 7 ta o‘rin ajratilgan [1:16]. Jami olstda 1951 yilda 665 nafar kishi bu kasallikdan davolangan, bu ko‘rsatkich 1950 yildagiga nisbatan 131 nafar kishiga, ya’ni 24,5 foizga ko‘paygan. Oblastning barcha rayonlarida mazkur kasallikka chalingan ro‘yxatga olingan bemorlar soni ko‘paygan, ayniqsa, G‘uzor rayonida (215%) bu ko‘rsatkich baland edi [1:16].

Mazkur kasallikka chalingan bemorlarni ro‘yxatga olishning oshganligiga sabab bu kasallikni diagnostika qilishning yaxshilanishi, sanitar targ‘ibotning kuchaytirilishi edi. Ammo brusellez bilan yangi kasallanganlar soni 33 nafarga (34,7%) ko‘payganligi 1951 yilda bu kasallikka qarshi tadbirlar yetarli darajada olib borilmaganligi ko‘rinadi. 1951 yilda oblastda tibbiyot xodimlari tomonidan brusellez bo‘yicha 119 ta ma’ruza o‘qilgan, 1452 marta suhbat (17903 kishi) o‘tkazilgan, bundan tashqari, radioda 3 marta ma’ruza o‘qilgan, gazetada 2 marta maqola chop etilgan.

Profilaktik maqsadda oblastda chorvachilik mahsulotlari bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarda sanitar nazorati olib borilgan. 1951 yilda tibbiyot xodimlari 157 ta ob‘ektga 1339 marta borgan, ya‘ni 1 ta ob‘ektni 8,5 marta nazorat qilish uchun borgan. Sanitar holat buzilganligi sababli 12 ta jarima solingan va ulardan 6 tasi undirilgan [1:17].

Bundan tashqari, 1951 yilda mazkur kasallikning oldini olish uchun birinchi marta ommaviy emlash ishlari amalga oshirildi. Emlash ishlari 4 ta qorako‘lchilik xo‘jaliklarida va go‘sht kombinatida olib borildi. Jami 1059 nafar kishi tekshirilgan, ulardan 683 (64, %) brusellezga ijobiy reaksiya bildirgan, emlashga qarshiliklar 138 nafar (13) kishida aniqlangan. Brusellezga qarshi 238 nafar kishi (22,5%) emlangan. Shuningdek, 1952 yildaham emlash ishlari kengaytirildi. Sovxoz chorvachilik xo‘jaliklaridan tashqari, kolxoz chorvachilik xo‘jaliklarida emlash ishlari o‘tkazildi. Jami oblastning 9 ta rayonining 4 ta sovxozida va 37 ta kolxozida emlash amalga oshirildi. Bu jarayonda 2151 nafar kishi tekshirilishi natijasida 1537 nafar kishida emlashga qarshilik, jumladan 1238 nafar kishida brusellez kasalligiga ijobiy reaksiya aniqlangan. 614 nafar kishi emlangan bo‘lsa, ulardan 139 nafar cho‘pon, 83 nafar sut sog‘uvchi, 288 nafar boshqa kasb egalari edi [1:17].

Aholiga tekshiruvdan o‘tkazilmagan sut mahsulotlari, go‘sht mahsulotlari sotilishi natijasida chorvachilik sohasida faoliyat yuritmagan kishilar ham bu kasallikka chalingan. Bundan tashqari, Qashqadaryo oblasti ijroiyy komiteti chorvachilik xo‘jaliklari 100 foiz brusellez bilan kasallanganligini hisobga olmasdan pasterizatsiya qilinmagan sutdan brynza tayyorlashga ruxsat berganligi ham holatni yomonlashtirgan.

Qashqadaryo viloyati qishloqlarida, ayniqsa, brusellez keng tarqalgan joylarda tibbiyot kadrlarining yetishmasligi bu kasallikka qarshi tadbirlarni amalga oshirishni qiyinlashtirgan. Masalan, Koson rayonida 4 ta vrachlik uchastkalaridan faqat bittasida shifokor, 18 ta feldsherlik punktlaridan 6 tasida o‘rta ma‘lumotli tibbiyot xodimi faoliyat yuritgan. Beshkent, G‘uzor, Dehqonobod rayonlarida ham ahvol shunday bo‘lgan. Beshkent, Qamashi, G‘uzor rayonlari sanitar-epidemiologiya stansiyalarida 2 nafardan o‘rta ma‘lumotli tibbiyot xodimi mavjud edi [1:19]. Kasallik keng tarqalgan Koson, G‘uzor, Dehqonobod, Qamashi, Ko‘kbuloq rayonlarida kadrlar yetishmaganligi tufayli brusellezga qarshi bo‘limlar tashkil etilmagan. Oblast brusellezga qarshi stansiyasi mutaxassis terapevt va bakteriolog bilan ta‘minlanmagan edi, epidemiyalarga qarshi muassasalarning mavjud xodimlari yetarli tajribaga ega bo‘lmagan. Shuningdek, oblastda tibbiyot kadrlari qo‘nimsizligi kuchli edi. Bundan tashqari, tibbiyot xodimlari chorvachilik xo‘jaliklariga borishlari uchun transport bilan ta‘minlanishi ham yomon ahvolda bo‘lgan.

O‘zSSR Ministrlar Sovetining 1952 yil 8 martdagi farmoyishiga ko‘ra, Toshkent oblastida “Brusellezga qarshi kurash tadbirlari haqida”gi hukumat qarorining bajarilishi maxsus tashkil etilgan brigada tomonidan tekshirildi. 1952 yil 1 apreldan 1 maygacha brigada Toshkent oblasting Sirdaryo, Yangiyo‘l, Ohangaron, Parkent va Orjonikidze rayonlarini, sovxozlar vazirligining 4-sonli “Vrevskiy” nomli sovxozini, O‘zSSR Oziq-ovqat sanoati

vazirligining “Parkent” nomli vinochilik sovxozini, shuningdek, Go’sht va sut mahsulotlari sanoati vazirligining Toshkent go’sht kombinatida tekshiruv ishlarini olib bordi [2:1].

Toshkent oblastida yirik shoxli va mayda shoxli chorva mollarini brusellezga tekshirish rejali ravishda 1948 yildan boshlangani aniqlandi. 1952 yilda yirik shoxli chorva mollarida mazkur kasallikka chalingan 41 ta punkt, mayda shoxli chorva mollarida 15 ta punkt aniqlandi. Brusellez kasaliga chalingan hayvonlarni oxirigacha davolashda muammolar mavjud bo‘lib, ularni tekshirish muddatlari yillab cho‘zilib ketgan. Bundan tashqari, kasallik aniqlangan joylar dezinfeksiya qilinmagan. Fermalarga yangi kelgan chorva mollari karantinga qo‘yilmaganligi va brusellezga tekshirilmaganligi ham salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, aholi orasida sanitariya targ‘iboti juda sust olib borilganligi ham profilaktika ishlarini olib yomonlashtirgan. Ohangaron, Parkent va Sirdaryo rayonlarida veterinar va tibbiyot xodimlarining tez-tez almashishi brusellez kasaliga qarshi kurashning susayishiga olib kelgan omillardan edi.

Toshkent sut zavodi sovxozlardan sutni brusellez bilan kasallangan mollardan ham pasterizatsiya qilinmagan holda, yozuvlari ko‘rsatilmagan va plomba qo‘yilmagan holda qabul qilgan. Zavodda pasterizatsiya qilingan sut bir liniyada sovutilgan, pasterizatsiya qilingan sut brusellezga tekshirilmagan. Buning ustiga bir soatda faqatgina 500-600 litr sutni pasterizatsiya qilish imkoni mavjud edi va bu talabga javob bermagan [2:3]. Yangiyo‘l, Sirdaryo, Parkent va boshqa rayonlardagi sut punktlarida umuman pasterizatsiya qilinmagan va sut qaynatilmagan.

Brusellezga chalingan chorva mollari Toshkent go’sht kombinatiga so‘yish uchun olib kelingan va bunda ham sanitar talablarga rioya qilinmasdan bunday hayvonlar umumiy sexda ish kuni oxirida yoki maxsus ajratilgan kunda so‘yilgan. Faqat kichik qismigina maxsus sanitar kushxonasida so‘yilgan, ammo u yer ham sanitar talablarga javob bermagan. Mahsulotlarni tayyorlash kontorasi (Zagotkontora) tomonidan olib kelingan mollarning ham brusellezga tekshirilganlik haqidagi hujjati bo‘lmagan. Brusellez kasaliga uchragan mollarning terilari 2 oyga tuzlangan, ichki organlari qaynatilgan.

Toshkent go’sht kombinati xodimlari brusellezga tekshirilganda 1950 yilda 1084 nafar xodimdan 150 nafari ushbu kasallikka ijobiy reaksiya bildirganligi, ulardan 5 nafari yangi kasallanganligi aniqlandi. 1952 yilda 500 nafar kishi tekshirilib, ularning 316 nafarida ijobiy reaksiya aniqlangan, jumladan 126 nafari 1950 yilda emlanganlarga to‘g‘ri kelgan. 1950 yilda o‘tkazilgan profilaktik emlash jarayoniga 458 nafar kishi tortilgan, 1951 yilda 190 nafar kishi emlangan [2:3].

Chorvachilik va uning mahsulotlarini qayta ishlash sohasida faoliyat yuritgan kishilar yetarli darajada brusellez kasaliga tekshirilmagan. Shuningdek, yaylovlardagi chorvadorlar va ularning oila a‘zolari umuman e’tibordan chetda qolgan. Chorva bozorlari hamda chorvalarning rayonlar, oblastlar, respublikalar o‘rtasidagi harakati nazorat qilinmagan.

1952 yilda Quyi Chirchiq rayonida 91 nafar kishi brusellezga tekshirilganda ulardan 47 nafarida ushbu kasallik borligi aniqlandi [2:6]. Kasallik manbai sut punktidan olingan xom sut va sut mahsulotlari edi. “Kommuna” kolxozida 19 nafar kishi tekshirilganda ulardan 18 nafarida ushbu kasallikka chalinganligi ko‘rindi [2:7].

1950 yilda Surxondaryo sut mahsulotlari korxonasi tekshirilishi natijasida Denov sut mahsulotlari korxonasi moslashtirilmagan binoda joylashganligi, sut mahsulotlari saqlangan joyda bug‘doy ham saqlangani aniqlandi. Korxona xodimlari maxsus kiyim bilan, sochiq, sovun, “umyivalnik” kabi oddiy jihozlar bilan ham ta‘minlanmagan edi [2:39].

Brusellez kasalligiga chalingan chorva mollari mavjud bo‘lgan fermalar aholi turar-joylariga yaqin joylarda joylashganligi ham aholi salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Jumladan, Denov rayonining “Hazarbog” nomli sovxozidagi ferma sovxozning markazida aholi turar-joyidan 200 metr masofada joylashgan edi [2:40].

1950 yilda Surxondaryo oblastida brusellezga qarshi stansiya tashkil etildi, ammo uning faoliyati yaxshi bo‘lmagan. 1952 yilda mazkur stansiya 2 ta xonadan iborat bo‘lib, bakteriologik tekshiruvlarni olib borishga moslashmagan edi [2:66]. Natijada bemorlarga eng oddiy laboratoriya tahlilini amalga oshirish imkoni bo‘lmagan va bu kasallik tashxisi kech qo‘yilishiga sabab bo‘lgan. Ba‘zi bemorlar bir xil shikoyat bilan bir necha marta murojaat qilgan bo‘lsa ham to‘g‘ri diagnoz qo‘yilmagan va ularni Buxoro shahriga jo‘natishga to‘g‘ri kelgan, u yerda ularda brusellez kasalligiga chalingani aniqlangan.

Surxondaryo oblastida brusellezga qarshi stansiyasi oblastda brusellezga chalingan bemorlarni ro‘yxatga ham to‘liq olib bormagan. Jumladan, 1951 yilda oblast shahar va qishloqlarida yashagan hamda Buxoro shahrida ushbu kasallikdan davolangan 58 foizi ro‘yxatga olinmagan. Shuningdek, Konimex, G‘ijduvon kabi joylarda davolangan 78 foiz bemor hisobga olinmagan [2:67]. Bu esa bemorlarni muntazam ravishda nazorat qilish imkonini bermasdan, ularning e‘tibordan chetda qolishiga olib keladi.

Umuman, Surxondaryo oblastida tibbiyot xodimlari mazkur kasallikka chalingan bemorlarni davolash usullarini yetarli darajada bilmaganligi sababli davolanish uchun Buxoro shahriga jo‘natilgan. Faqat 1951 yilda brusellez kasalligi bilan gospitalizatsiya qilingan bemorlarning 54,7 foizi Buxoroda yotib davolangan [2:67].

Stansiyaning kadrlar bilan ta‘minlash muammolaridan biri edi, bosh shifokor va boshqa xodimlar o‘rindoshlik asosida ishlagan, ularning asosiy ish joylari oblast sanitar-epidemiologik inspeksiyasi edi.

Cho‘ponlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish yomon ahvolda edi. Jumladan, Buxoro oblastining G‘ijduvon rayonida cho‘ldagi Ko‘kcha uchastkasi cho‘ponlariga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun 1952 yilda feldsher tayinlangan. Ammo, feldsher umuman cho‘ponlar bilan uchrashmagan, shunga qaramasdan maosh va dori-darmonlarni olib turgan. Sovxoz markazidan 300 km. uzoqlikda Ispan quduqda (Konimex sovxози) joylashgan chorvadorlar ham tibbiy punktga ega bo‘lmaganligi tufayli muntazam tibbiy yordam olish imkoni bo‘lmagan, ularga tasodifan rayonga kelib qolgan tibbiy xodimlardan yordam olgan. Buxoro oblastida ham bu kasallikka qarshi kurashish yetarli darajada bo‘lmaganligi sababli 1951 yilda 1950 yildagiga nisbatan 47 foizga oshganligi ko‘rinadi [2:69].

Xuddi shunday holat boshqa oblastlarda ham mavjud edi. Masalan, 1952 yilda Andijon oblastida ham brusellezga qarshi yetralicha ish olib borilmayotgani aniqlandi, kasallik

diagnostikasi va davolash usullari qoniqarsiz bo‘lgan. Rayon sanitar-epidemiologik stansiyalari aholini ommaviy ravishda tekshirish uchun zarur preparatlar va rekativlar bilan ta‘minlanmagan.

**XULOSA.** 1940-1950 yillarda O‘zbekistonda brusellezga qarshi kurash choralari qishloq xo‘jaligi, veterinariya va sanitariya sohalaridagi keng qamrovli islohotlar doirasida amalga oshirilgan. Asosiy e‘tibor chorvachilik sohasida tarqalgan kasalliklarni kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, mol va qo‘ylar orasida brusellezning keng tarqalishi iqtisodiyot va aholi salomatligi uchun katta tahdid tug‘dirgan.

Kurash tadbirlari jumlasiga aholi va hayvonlar tekshiruvlari, profilaktika va ommaviy emlashlar, sanitariya targ‘iboti hamda chorva mahsulotlarining gigiena qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish kiradi. Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida brusellezga qarshi tekshiruvlar va davolash ishlari ko‘rsatkichlarining yaxshilangani qayd etilgan, biroq mavjud kadrlar yetishmovchiligi va sanitar shartlarning sustligi kasallikning batamom bartaraf etilishiga xalaqit bergan.

Emlash jarayoni kengaytirilishi bilan birga, sut va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarishda sanitar standartlarga rioya qilinmagan. Shuningdek, veterinariya va tibbiy xodimlarning doimiy almashinishi, yetarli darajada malakaga ega bo‘lmaganligi va transport ta‘minoti kamchiliklari ham kasallikka qarshi kurashni murakkablashtirgan.

Muammolardan biri – diagnostika va statistik nazoratning samarasizligi bo‘lib, ko‘plab bemorlar vaqtida ro‘yxatga olinmagan yoki ular xato tashxis qilingan. Sanitariya targ‘ibotining kuchaytirilishiga qaramay, profilaktika ishlari sust qolgan. Mazkur davrda amaldagi kamchiliklarga qaramay, brusellezga qarshi kurash uchun ilmiy izlanishlar, islohotlar va tadbirlar muhim ahamiyat kasb etgan.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston ilmiy-texnikaviy va tibbiy hujjatlari Milliy arxivi (O‘z ITTH MA), R.40-fond, 1-ro‘yxat, 94-ish.

2. O‘zbekiston ilmiy-texnikaviy va tibbiy hujjatlari Milliy arxivi (O‘z ITTH MA), R.40-fond, 1-ro‘yxat, 77-ish.